

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-oktyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 8054,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari 133,9 %ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2148,4 ming so'mga yetdi.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 8054,1 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyo'gina eng katta ulushni transport xizmatlari (27,5 %), savdo xizmatlari (30,8 %), moliyaviy xizmatlar (9,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,4 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida xizmatlar tarkibi,%




2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 8054,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	8054,1	108,1
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	511,1	117,2
moliyaviy xizmatlar	787,1	133,9
transport xizmatlari	2217,0	105,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2036,0	102,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	212,6	102,5
savdo xizmatlari	2484,3	103,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	226,2	103,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	355,0	108,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	109,4	111,8
ijara xizmatlari	290,2	106,7
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	236,0	103,0
shaxsiy xizmatlar	340,7	102,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	69,6	141,4
boshqa xizmatlar	214,9	103,2

O'tgan yilning shu davriga nisbatan transport xizmatlari hajmi (2217,0 mlrd. so'm), savdo xizmatlari (2484,3 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (787,1 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (511,1 mlrd. so'm), ta'lif sohasidagi xizmatlar (355,0 mlrd. so'm) oshishi kuzatilmogda.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm



Me'morchilik sohasidagi xizmatlarda xizmatlar hajmi nisbatan pastroq o'sish (69,6 mlrd. so'm) qayd etildi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (141,4 %), moliyaviy xizmatlar (133,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (111,8 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (108,3 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (102,3 %), kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (103,0 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,5 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Hozirgi kunda viloyat ulgurji va birja savdo korxonalari faoliyati uchun zarur qonunchilik asoslari yaratilgan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmog'i faol rivojlanmoqda. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2484,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 30,8 % ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-oktyabr oylarida
savdo xizmatlari tarkibi, %**




- **Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosи, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**
- **Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 75,6 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 14,7 % ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosи, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 9,7 % ni tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2148,4 ming so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan o'sish 106,0 % ni tashkil qildi.



Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlar
hajmi 2148,4 ming
so'mga yetdi.



O'tgan yilning shu
davriga nisbatan
106,0 % ni tashkil
qildi.

Viloyat statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Mas'ul: A.Abdullayev
(71) 230-85-35